

“TEMUR TUZUKLARI” INGLIZCHA TARJIMASIDA QABILA NOMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TRANSFERI VA TARIXIY-REFERENSIAL EKVIVALENTLIGI

Abdullayev Shaxzod Fazliddin o‘g‘li

O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchisi

abdullaev.sh.f@gmail.com; +998971557767

Annotatsiya. Mazkur tezisda “Temur Tuzuklari” asarining inglizcha tarjimasida qabila nomlarining berilish xususiyatlari lingvokulturologik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Qabila nomlari tarixiy matnda muayyan etnik guruhni bildiruvchi oddiy onomastik birliklar sifatida emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy-siyosiy tuzilishi, madaniy identifikatsiyasi va milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar sifatida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi. Tadqiqotda qabila nomlarining ingliz tiliga transliteratsiya, transkripsiya, grafik moslashtirish, tarixiy shaklni saqlash, standartlashtirish va izohlash kabi tarjima strategiyalari orqali o‘girilishi ko‘rib chiqiladi. Asliyatdagi etnonimik birliklar bilan inglizcha tarjima variantlari o‘rtasidagi fonetik-grafik, semantik va referensial tafovutlar aniqlanib, ularning tarixiy shaxslar, qabilalar va muayyan ijtimoiy guruhlarni to‘g‘ri identifikatsiya qilishga ta’siri baholanadi. Shuningdek, xalqaro tarixshunoslikda barqarorlashgan shakllardan foydalanish qabila nomlarining tanib olinuvchanligi va tarixiy-referensial ekvivalentligini ta’minlashning muhim sharti ekanligi ko‘rsatib beriladi. Maqola yakunida qabila nomlarini tarjima qilishda milliy-madaniy xususiyat, tarixiy aniqlik va zamonaviy ilmiy transliteratsiya tamoyillarini uyg‘unlashtirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: “Temur Tuzuklari”, inglizcha tarjima, qabila nomlari, etnonim, lingvokulturologik transfer, tarixiy-referensial ekvivalentlik, transliteratsiya, transkripsiya, tarixiy autentiklik, madaniy identifikatsiya, onomastik birlik, tarjima strategiyasi.

KIRISH. “Temur Tuzuklari” Markaziy Osiyo xalqlarining davlatchilik tarixi, harbiy boshqaruvi, siyosiy tafakkuri va ijtimoiy munosabatlarini o‘zida aks ettirgan muhim tarixiy manbalardan biridir. Asarda Amir Temur davridagi turli urug‘, qabila va etnik guruhlarning nomlari ko‘p uchraydi. Mazkur nomlar tarixiy voqealar ishtirokchilarini aniqlash, qo‘shin va davlat boshqaruvidagi ijtimoiy guruhlarning o‘rnini belgilash, shuningdek, o‘sha davrdagi etnik-siyosiy munosabatlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli qabila nomlarini ingliz tiliga tarjima qilishda faqat ularning tashqi grafik shaklini qayta ifodalash yetarli emas.

Tarjimada ularning tarixiy mansubligi, madaniy konnotatsiyasi, referenti va xalqaro ilmiy adabiyotlarda shakllangan yozuv me'yorlari ham hisobga olinishi lozim.

Qabila nomlari til tizimida atoqli otlarning alohida guruhini tashkil etib, o'zida lingvistik va ekstralingvistik axborotni birlashtiradi. Ularning lingvistik xususiyati fonetik, grafik va morfologik shaklda namoyon bo'lsa, ekstralingvistik mazmuni muayyan xalq, urug', qabila yoki tarixiy-etnik birlik bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun qabila nomlarini tarjima qilish jarayoni lingvokulturologik transfer hodisasi sifatida baholanishi mumkin. Lingvokulturologik transfer jarayonida manba tilidagi birlikning nafaqat nomlash vazifasi, balki uning madaniy va tarixiy mazmuni ham tarjima tiliga ko'chiriladi. Bunda tarjimon ikki tilning fonetik-grafik imkoniyatlari, tarixiy nomlash an'analari va qabul qiluvchi auditoriyaning bilim darajasi o'rtasida muvozanatni ta'minlashi zarur.

Tarjimashunoslikda tarixiy nomlarni berishning transliteratsiya, transkripsiya, kalka, ekvivalent bilan almashtirish, izohlash va standartlashtirish kabi usullari mavjud. Qabila nomlarini tarjima qilishda transliteratsiya yetakchi usullardan biri hisoblansa-da, u har doim ham tarixiy-referensial ekvivalentlikni to'liq ta'minlay olmaydi. Chunki bir qabila nomining turli tarixiy manbalarda yoki tillarda bir-biridan farqli grafik variantlarda berilishi uning ingliz tilidagi o'quvchi tomonidan tanib olinishini qiyinlashtiradi. Ayrim hollarda tarjimada manba tilining fonetik shakliga haddan tashqari yaqinlashish xalqaro tarixshunoslikda allaqachon barqarorlashgan variantdan uzoqlashishga olib keladi. Natijada nomning shakli o'xshashligi saqlangan bo'lsa-da, uning tarixiy referenti noaniqlashishi mumkin.

Tarixiy-referensial ekvivalentlik tarjima birliklarining manba matndagi tarixiy obyekt, shaxs yoki etnik guruhga muvofiq kelishini anglatadi. Qabila nomlarida mazkur ekvivalentlik nomning ingliz tilidagi shakli muayyan tarixiy qabilani aniq ko'rsatishi, uni boshqa etnik birliklar bilan chalkashtirmasligi va xalqaro ilmiy muomaladagi nomlanish bilan uyg'un bo'lishi orqali ta'minlanadi. Demak, tarixiy-referensial ekvivalentlik faqat so'zning lug'aviy ma'nosi yoki tashqi shakli bilan emas, balki uning tarixiy referentini to'g'ri tiklash bilan belgilanadi. Bu esa tarjimondan tarix, etnologiya, onomastika va lingvokulturologiya sohalariga oid bilimlarni ham talab etadi.

"Temur Tuzuklari"ning inglizcha tarjimasida uchraydigan ayrim qabila nomlarining grafik shakli zamonaviy ingliz tilidagi tarixiy adabiyotlarda qo'llanadigan shakllardan farq qilishi mumkin. Bunday farqlar tarjima yaratilgan davrdagi imlo tamoyillari, tarjimonning manba tili haqidagi tasavvuri, vositachi til ta'siri yoki nomlarni bevosita fonetik qayta ifodalashga intilish bilan izohlanadi. Biroq tarixiy matnning zamonaviy ilmiy talqini nuqtayi nazaridan qabila nomlarini yagona va tan olingan shaklda berish muhim ahamiyatga ega. Chunki standartlashgan shakl o'quvchiga nomning tarixiy manbasini aniqlash, uni boshqa tarixiy asarlardagi

ma'lumotlar bilan qiyoslash va qabilaning etnik mansubligini to'g'ri tushunish imkonini beradi.

Tarixiy va milliy-madaniy birliklarning tarjimai zamonaviy tarjimashunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. S.Basnett tarjimani faqat tillararo almashtirish jarayoni sifatida emas, balki adabiyot, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hodisa sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, tarixiy matnlardagi qabila nomlarini tarjima qilishda ularning grafik shakli bilan bir qatorda, madaniy va tarixiy mazmunini ham saqlash talab etiladi [Basnett, 2014].

S.Basnett va A.Lefevre tomonidan rivojlantirilgan tarjimashunoslikdagi madaniy yondashuv tarjima jarayonini ijtimoiy, tarixiy va mafkuraviy kontekst bilan bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Bu nuqtayi nazardan etnonim va qabila nomlari muayyan etnik guruhni bildiruvchi oddiy atoqli otlar emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy identifikatsiyasi va ijtimoiy tuzilishini aks ettiruvchi birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ularning tarjimada noto'g'ri yoki noaniq berilishi tarixiy axborotning buzilishiga olib kelishi mumkin.

P. Nyumark atoqli otlar, tarixiy nomlar va madaniy birliklarni tarjima qilishda transkripsiya, transliteratsiya, funksional ekvivalent, tavsifiy ekvivalent va izohlash kabi usullardan foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Olimning fikricha, atoqli otlarda denotativ, ya'ni muayyan obyektning nomlash vazifasi ustuvor bo'lsa-da, ayrim nomlar qo'shimcha tarixiy va madaniy axborotni ham ifodalaydi [Nyumark, 1981]. Shu sababli "Temur Tuzuklari"dagi qabila nomlarini ingliz tiliga o'girishda ularning shakliy qayta ifodalanishi bilan cheklanmasdan, tarixiy referentining to'g'ri yetkazilishiga ham e'tibor qaratish lozim.

K.Nord atoqli otlarning matndagi vazifasi va o'quvchi tomonidan qabul qilinishini tarjima strategiyasini tanlashdagi muhim omil sifatida baholaydi. Atoqli nomlar geografik, tarixiy yoki madaniy mansublikni ko'rsatishi, personaj yoki ijtimoiy guruh haqida qo'shimcha axborot berishi mumkin. Binobarin, qabila nomining tarjima tilidagi shakli manba matndagi nom bilan referensial aloqani saqlashi va qabul qiluvchi o'quvchi uchun identifikatsiya qilinadigan bo'lishi kerak.

Onomastik tadqiqotlarda nomlar til, tarix, genealogiya, madaniy aloqa va ijtimoiy identitetni o'rganish vositasi sifatida qaraladi. Nomlarning shakli muayyan xalqlar o'rtasidagi tarixiy munosabatlar, til kontaktlari va etnik mansublik haqida ma'lumot berishi mumkin. Shu sababli tarixiy manbalardagi etnonim va qabila nomlarini tahlil qilishda lingvistik ma'lumotlar tarixiy-etnografik manbalar bilan qiyoslanishi lozim.

"Temur Tuzuklari" tarjimalariga oid mavjud tadqiqotlarda asosan tarixiy leksika, harbiy terminlar, unvonlar, antroponimlar va toponimlarning ifodalanishiga e'tibor qaratilgan. Biroq inglizcha tarjimada qabila nomlarining lingvokulturologik transferi, xalqaro tarixshunoslikdagi shakllarga mosligi va tarixiy referentni saqlash darajasi

alohida muammo sifatida yetarlicha tizimli o'rganilmagan. Mazkur maqola shu jihatdan qabila nomlarini shakliy, semantik va tarixiy-referensial mezonlar asosida kompleks tahlil qilishga qaratiladi.

Tadqiqot materiali sifatida “Temur Tuzuklari” matnida uchraydigan qabila va etnik guruh nomlari hamda ularning inglizcha tarjimada berilgan variantlari tanlandi. Tadqiqotda qiyosiy, kontekstual, lingvokulturologik, onomastik va tarixiy-referensial tahlil usullaridan foydalanildi.

“Temur Tuzuklari”ning U.Deyvi tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimasida qabila nomlarining berilishini tahlil qilish natijasida tarjimon asosan transliteratsiya strategiyasiga tayangani aniqlandi. Jumladan, asliyatdagi *arg'in* nomi *arghoon*, *tulkichi* – *toulkchee*, *dulday* – *douldee*, *mo'g'ul* – *moghol*, *sulduz* – *suldoze*, *tug'oy* – *toughauee*, *qipchoq* – *kypchauk*, *orlot* – *aurlaut* va *totor* – *tautaur* shaklida berilgan. Ushbu variantlarda qabila nomlarini tarjima qilib almashtirish emas, balki ularning talaffuzini ingliz grafikasi vositasida qayta ifodalash tamoyili ustuvorlik qiladi.

1-jadval

“Temur Tuzuklari”dagi qabila nomlarining inglizcha tarjimada berilishi va tarixiy standartlashuv darajasi

№	Manba tilidagi shakl	U. Deyvi tarjimasi	Xalqaro ilmiy shakl	Qo'llangan usul	Tarjima holati
1	arg'in	<i>arghoon</i>	<i>Argyn</i>	fonetik transliteratsiya	qisman muvofiq
2	tulkichi	<i>toulkchee</i>	<i>Tulkichi</i>	kengaytirilgan transliteratsiya	qisman muvofiq
3	dulday	<i>douldee</i>	<i>Dulday</i>	fonetik-grafik moslashtirish	qisman muvofiq
4	mo'g'ul	<i>moghol</i>	<i>Mongol</i>	tarixiy transliteratsiya	standart shaklga nomuvofiq
5	sulduz	<i>suldoze</i>	<i>Suldus</i>	fonetik transliteratsiya	standart shaklga nomuvofiq
6	tug'oy	<i>toughauee</i>	<i>Tughay</i>	murakkab fonetik transliteratsiya	qisman muvofiq
7	qipchoq	<i>kypchauk</i>	<i>Kipchak/Qipchaq</i>	fonetik-grafik transliteratsiya	standart shaklga nomuvofiq
8	orlot	<i>aurlaut</i>	<i>Arulad</i>	fonetik transliteratsiya	standart shaklga nomuvofiq
9	totor	<i>tautaur</i>	<i>Tatar</i>	fonetik transliteratsiya	standart shaklga nomuvofiq

Jadvaldagi misollar U. Deyvi qabila nomlarining milliy va etnik xususiyatini saqlashga harakat qilganini ko'rsatadi. Tarjimon nomlarni ingliz tilidagi umumiy ma'noli birliklar bilan almashtirmagan va ularni tavsifiy tarjima qilmagan. Shu sababli

tarjimada etnonimlarning nominativ mustaqilligi va manba madaniyatiga mansubligi ma'lum darajada saqlangan. Biroq qo'llangan transliteratsiya shakllari zamonaviy xalqaro tarixshunoslikdagi barqaror nomlanishlar bilan muntazam ravishda muvofiqlashtirilmagan.

Masalan, *arg'in* qabila nomining *arghoon* shaklida berilishida asliyatdagi undosh tarkibi qisman saqlangan. Biroq ingliz tilidagi tarixiy va etnologik manbalarda *Argyn* shakli kengroq tanilgan. *Arghoon* varianti fonetik jihatdan manba birlikka yaqin bo'lsa-da, u ingliz o'quvchisida mazkur qabilaning xalqaro ilmiy adabiyotlarda qo'llanadigan nomi bilan bevosita assotsiatsiya hosil qilmasligi mumkin. Demak, bu o'rinda fonetik yaqinlik ta'minlangan, ammo terminologik standartlashuv to'liq amalga oshirilmagan.

Tulkichi–toulkchee va *dulday–douldee* juftliklarida ham tarjimon talaffuzni ingliz grafikasi orqali ifodalashga intilgan. *Toulkchee* shaklidagi *ou* va *ee* harf birikmalari ingliz tilida muayyan talaffuzni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, mazkur shakl qabila nomining asl grafik ko'rinishini murakkablashtirgan. Xuddi shuningdek, *douldee* variantidagi *ou* va *ee* birikmalari tarixiy nomni ingliz talaffuziga yaqinlashtiradi, biroq xalqaro ilmiy muomaladagi *Dulday* shaklidan uzoqlashtiradi.

Tug'oy nomining *toughauee* shaklida berilishi tarjimadagi eng murakkab grafik variantlardan biri hisoblanadi. Ingliz tilidagi *tough* so'ziga o'xshash boshlanish qismi nomning talaffuzi bo'yicha noto'g'ri assotsiatsiya keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, birlik tarkibidagi ortiqcha harf birikmalari nomni tanib olishni qiyinlashtiradi. Shu sababli mazkur birlik uchun *Tughay* shakli grafik ixchamlik, fonetik yaqinlik va ilmiy tanib olinuvchanlik mezonlariga ko'proq javob beradi.

Tahlildagi eng muammoli birliklar sifatida *moghol*, *suldoze*, *kypchauk*, *aurlaut* va *tautaur* shakllari ajratildi. Dissertatsiya materiallarida ham ushbu variantlarning xalqaro tarixshunoslikda barqarorlashgan *Mongol*, *Suldus*, *Kipchak*, *Arulad* va *Tatar* shakllariga mos kelmasligi qayd etilgan. Bunday nomuvofiqlik qabila nomlarining ilmiy identifikatsiyasini murakkablashtirib, ularning zamonaviy tarixiy manbalardagi ekvivalentlari bilan bog'lanishini susaytiradi.

Mo'g'ul etnonimining *moghol* shaklida berilishi alohida e'tiborga loyiq. *Moghol* varianti tarixiy manbalarda uchrashi mumkin bo'lgan grafik shakl bo'lsa-da, zamonaviy ingliz tilidagi tarixiy, siyosiy va etnologik adabiyotlarda *Mongol* nomi ancha barqaror va tanish hisoblanadi. *Moghol* shakli ayrim kontekstlarda *Mughal* nomi bilan ham chalkashishi mumkin. Bu holat qabila nomining tarixiy referentini aniqlashda noaniqlik tug'diradi. Shuning uchun mazkur etnonimni *Mongol* shaklida berish tarixiy-referensial ekvivalentlikni yaxshiroq ta'minlaydi.

Qipchoq nomining *kypchauk* shakli manba birlikning fonetik xususiyatlarini saqlashga yo'naltirilgan. Biroq ushbu shakldagi *y* va *auk* elementlari zamonaviy ingliz tilidagi ilmiy transliteratsiya tamoyillariga mos kelmaydi. Xalqaro tarixshunoslikda *Kipchak* va ayrim turkologik tadqiqotlarda *Qipchaq* shakllari qo'llanadi. Shuning

uchun tarjimada asosiy shakl sifatida *Kipchak* variantidan foydalanish, zarur hollarda *Qipchaq* variantini qavs ichida ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Totor nomining *tautaur* shaklida ifodalanishi ham talaffuzga asoslangan eski transliteratsiya modelining mahsuli sifatida baholanishi mumkin. Mazkur variantda asliyatning tovush tarkibini qayta yaratishga urinish mavjud, ammo u ingliz tilidagi o'quvchi uchun umumqabul qilingan *Tatar* etnonimini darhol anglatmaydi. Natijada nomning etnik referenti saqlangan bo'lsa-da, uning kommunikativ tanib olinuvchanligi pasaygan.

Suldoze va *aurlaut* variantlarida ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Ushbu shakllar qabila nomlarining talaffuzini ingliz tiliga moslashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, ularda grafik ortiqchalik va fonetik noaniqlik mavjud. *Suldus* va *Arulad* shakllari esa ilmiy manbalardagi barqaror variantlarga yaqin bo'lib, qabilalarning tarixiy referentini aniqroq ifodalaydi.

XULOSA

“Temur Tuzuklari”ning U. Deyvi tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimasida qabila nomlarining berilishini o'rganish tarixiy etnonimlarni tarjima qilish oddiy grafik almashtirish bilan cheklanmasligini ko'rsatdi. Qabila nomlari muayyan etnik guruhni nomlash bilan birga, asar yaratilgan davrning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi, tarixiy xotirasi va madaniy identifikatsiyasini ham ifodalaydi. Shu sababli ularning tarjimada qayta berilishi lingvokulturologik transfer hamda tarixiy-referensial ekvivalentlik mezonlari asosida baholanishi lozim.

Tahlil natijalariga ko'ra, U. Deyvi qabila nomlarini ingliz tiliga o'girishda asosan transliteratsiya strategiyasidan foydalangan. *Arg'in–arghoon*, *tulkichi–toulkchee*, *dulday–douldee*, *mo'g'ul–moghol*, *sulduz–suldoze*, *tug'oy–toughauee*, *qipchoq–kypchauk*, *orlot–aurlaut* va *totor–tautaur* kabi shakllar tarjimonning manba matndagi etnik nomlarni saqlashga intilganini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv qabila nomlarining milliy-madaniy xususiyati va tarixiy koloritini ma'lum darajada saqlash imkonini bergan.

Biroq tarjimada qo'llangan transliteratsiya tamoyillari yagona grafik-fonetik tizimga asoslanmagan. Ayrim nomlarda ingliz tilining eski imlo va talaffuz me'yorlariga xos murakkab harf birikmalaridan foydalanilgan. Natijada *moghol*, *suldoze*, *kypchauk*, *aurlaut* va *tautaur* singari shakllar xalqaro tarixiy adabiyotlarda barqarorlashgan *Mongol*, *Suldus*, *Kipchak*, *Arulad* va *Tatar* variantlaridan uzoqlashgan. Bu esa nomlarning tanib olinuvchanligini pasaytirib, ularni zamonaviy ilmiy manbalardagi tarixiy referentlar bilan bog'lashni murakkablashtirgan.

U.Deyvi tarjimasida qabila nomlarining lingvokulturologik transferi ularning begonalik belgisi va etnik mansubligini saqlash orqali amalga oshirilgan. Shu jihatdan tarjimonning yondashuvi tarixiy-madaniy o'ziga xoslikni yetkazishda ijobiy ahamiyatga ega. Ammo lingvokulturologik transfer manba birlikning shaklini saqlash

bilangina cheklanmaydi. Tarjima o'quvchisi nom orqali tegishli tarixiy qabila yoki etnik guruhni to'g'ri aniqlay olishi ham kerak. Standartlashtirilmagan transliteratsiya ushbu kommunikativ vazifaning to'liq amalga oshishiga to'sqinlik qilgan.

Qabila nomlarini tarjima qilishda tarixiy-referensial ekvivalentlikni ta'minlash uchun nomning talaffuzga yaqinligi bilan bir qatorda, uning xalqaro tarixshunoslikdagi barqaror shakli ham hisobga olinishi zarur. Shu sababli zamonaviy tarjimalarda *Mongol*, *Kipchak*, *Tatar*, *Suldus*, *Argyn* kabi tan olingan shakllardan foydalanish maqsadga muvofiq. Kam tanilgan qabila nomlarida esa standart inglizcha shakl bilan birga asliyat yoki tarixiy tarjimadagi variantni qavs ichida berish mumkin. Masalan, *Kipchak* (*kypchauk*) yoki *Tatar* (*tautaur*) shakli tarixiy tarjima an'anasi bilan zamonaviy ilmiy standart o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi. Umuman, U. Deyvi tarjimasidagi qabila nomlari lingvokulturologik transfer nuqtayi nazaridan milliy va etnik o'ziga xoslikni saqlagan bo'lsa-da, grafik standartlashuv va tarixiy-referensial ekvivalentlik jihatidan qisman muvaffaqiyatli hisoblanadi. Tarixiy etnonimlarni tarjima qilishda xalqaro ilmiy an'ana, zamonaviy transliteratsiya me'yorlari, tarixiy autentiklik va o'quvchi uchun tanib olinuvchanlikning o'zaro uyg'unligi asosiy tarjima tamoyili sifatida belgilanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bassnett, S. *Translation Studies*. 4th ed. London and New York: Routledge, 2014.
2. Bassnett, S., Lefevere, A. *Translation, History and Culture*. London: Pinter Publishers, 1990.
3. Davy, J. *The Institutes, Political and Military, Written Originally in the Mogul Language by the Great Timour*. Inglizcha tarjima nashri.
4. Fedorov, A.V. *Osnovy obshchey teorii perevoda: lingvisticheskiye problemy*. Moskva: Vysshaya shkola, 1983.
5. House, J. *Translation Quality Assessment: Past and Present*. London and New York: Routledge, 2015.
6. Newmark, P. *Approaches to Translation*. Oxford: Pergamon Press, 1981.
7. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. New York and London: Prentice Hall, 1988.
8. Nord, Ch. *Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained*. Manchester: St. Jerome Publishing, 1997.
9. Nord, Ch. *Text Analysis in Translation: Theory, Methodology and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis*. 2nd ed. Amsterdam and New York: Rodopi, 2005.
10. Venuti, L. *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. 2nd ed. London and New York: Routledge, 2008.